

**MILLIY LOYIHALARNI DAVLAT BYUDJETI ORQALI
MOLIYALASHTIRISH:
YIRIK INFRATUZILMA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TAHLILI
VA
UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI**



YULDASHEVA UMIDA ASANALIYEVNA
*PhD. Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti “Xalqaro moliya
va kredit” kafedrasi professori*

[HTTPS://DOI.ORG/10.5281/ZENODO.14191117](https://doi.org/10.5281/ZENODO.14191117)



JUMANOV HOSILBEK G'AYBULLA O'G'LI
*Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
4-kurs MMT-96H guruh talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14191117>



XAMRABOYEV FAXRIDDIN KAMOLIDDIIN O'G'LI
*Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
4-kurs MMT-96H guruh talabasi*
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14191117>

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy loyihalarni davlat byudjeti orqali moliyalashtirish masalalari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning iqtisodiyotga ta'siri va ularning samaradorligini oshirish yo'llariga qaratilgan. Maqolada, avvalo, milliy loyihalarining iqtisodiy o'sishda tutgan o'rni va ularni moliyalashtirishning huquqiy hamda iqtisodiy asoslari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yirik loyihalarining davlat byudjetiga yuklamasi va ularning iqtisodiyotga qisqa va uzoq muddatli ta'siri tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba asosida, moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar, jumladan, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli kabi mexanizmlar tavsiya etiladi. Maqola yirik loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kalit so'zlar: Milliy loyihalar, davlat byudjeti, infratuzilma loyihalari, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalar, obligatsiyalar, kreditlar, moliyaviy samaradorlik, yirik loyihalar, xalqaro tajriba.

KIRISH

Bugungi kunda milliy loyihalarni, xususan, yirik infratuzilma loyihalarini davlat byudjeti orqali moliyalashtirish masalasi iqtisodiy siyosatning eng dolzarb yo'nalishlaridan

biriga aylandi. Hozirgi kunda zamon talabi hisoblangan bu ishlar Prezidentimiz nutqida ham o‘z isbotini topdi “Bizning loyihalarimiz nafaqat iqtisodiy o‘shishni ta’minlashi kerak, balki ularning asosiy maqsadi xalqimiz hayotini yaxshilash, odamlarning farovonligini oshirishdir.” Infratuzilma loyihalari transport, energetika, telekommunikatsiya va boshqa muhim sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishi, aholi turmush darajasini yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyatga ega. „Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, infratuzilma rivoji bo‘yicha har bir qo‘shimcha 1 foizlik sarmoya mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o‘shish sur’atini 0,7 foizga oshirishi mumkin”. Ushbu loyihalar nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy faollikni oshirish, balki uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanishni mustahkamlash imkonini beradi.

O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar jarayonida katta o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda ko‘plab yirik infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda. „2022yilda O‘zbekistonda infratuzilmaga davlat tomonidan ajratilgan sarmoya hajmi 7,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 12 foizga o‘sdi”. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning iqtisodiy o‘shishini ta’minlashdagi yirik loyihalarining ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi. Biroq, bu loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat byudjeti resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish talab etiladi. „O‘zbekistonning davlat qarzi 2023-yilda 29,2 milliard dollarga yetdi”, bu esa byudjet resurslarini yanada samarali taqsimlash va yirik loyihalarni moliyalashtirishda ehtiyotkor yondashuvni talab qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga xizmat qilishi kerakligini ta’kidlaydi. U bir necha bor ta’kidlaganidek, transport, energetika, suv resurslari va sog‘liqni saqlash sohasidagi yirik infratuzilma loyihalari mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim o‘rin tutadi.

Shu munosabat bilan Prezident 2022 yilda o‘tgan yig‘ilishlarning birida shunday dedi: “Biz iqtisodiyotni transformatsiya qilish yo‘lida infratuzilma sohasini chuqur isloh qilamiz. Yangi yo‘l, elektr stansiyalari, suv ta’minoti tizimlari, ijtimoiy infratuzilma loyihalari amalga oshirilmasa, xalqimiz farovonligini oshirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash qiyin bo‘ladi.”

Maqolaning maqsadi milliy loyihalarni, xususan, yirik infratuzilma loyihalarini davlat byudjeti orqali moliyalashtirish jarayonlarini tahlil qilish, ularning iqtisodiyotga ta’sirini baholash hamda moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir. Shu bilan birga, xalqaro tajriba asosida moliyalashtirish usullarini o‘rganish va O‘zbekistonda ularni qo‘llashning imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Osiyo Taraqqiyot Bankining hisobotida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma loyihalari tahlil qilinadi. ADB O‘zbekistonda transport, energetika va suv ta’minoti kabi sohalarda rivojlanayotgan loyihalarni moliyalashtirishning xalqaro tajribalari va moliyaviy modellari haqida ma’lumot beradi. Hisobotda davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli asosida amalga oshirilayotgan loyihalarining muvaffaqiyatli misollari ham ko‘rsatib

berilgan. Bu hisobot O‘zbekistonning infratuzilma rivojlanish strategiyasiga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilishda dolzarb manba hisoblanadi.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining hisobotida O‘zbekistonda davlat moliyaviy boshqaruvi va fiskal shaffoflikni oshirish bo‘yicha tahlil berilgan. IMF infratuzilma loyihalari va ularning moliyalashtirilishi jarayonlarida davlatning rolini chuqur tahlil qiladi. Ushbu hisobot infratuzilma loyihalari davlat qarzini qanday ta’sir qilishi va moliyalashtirishning oqilona usullari haqida tavsiyalar beradi. Hisobot O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari jarayonida davlat byudjetini boshqarishdagi ochiqlikni kuchaytirish masalasini muhim deb hisoblaydi.

Zohidjon Axmedov tomonidan yozilgan ilmiy ish O‘zbekistonda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy manbalari va samaradorlikka oid masalalarni chuqur tahlil qiladi. Muallif davlat byudjeti, davlat-xususiy sheriklik (PPP) va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar va grantlar orqali infratuzilmani rivojlantirish usullarini yoritadi. Kitobda milliy loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi, xususan, 2017–2022yillarda amalga oshirilgan loyihalar misolida ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy nashrida davlat byudjeti jarayonlarini modernizatsiya qilish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Nashrda davlat xarajatlarini samaradorligini oshirish, xususan, yirik loyihalar uchun davlat mablag‘larini ajratish va ularni boshqarish jarayonidagi islohotlar yoritilgan. Bu kitob O‘zbekiston davlat moliyaviy tizimini rivojlantirish bo‘yicha dolzarb ilmiy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Ergashevning kitobi O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik modeli orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi. Kitobda PPP modellari orqali amalga oshirilayotgan yirik loyihalar, jumladan, energetika, transport va sog‘liqni saqlash sohalaridagi islohotlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Muallif O‘zbekiston sharoitida davlat va xususiy sektorning hamkorligini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo‘llarini tahlil qiladi.

O‘zbekiston uchun milliy loyihalarni davlat byudjeti orqali moliyalashtirish va infratuzilma loyihalarining iqtisodiyotga ta’siriga bag‘ishlangan zamonaviy adabiyotlar iqtisodiyotning dolzarb masalalarini yoritadi va amaliy yechimlarni taklif qiladi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik, grafik-tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

MILLIY LOYIHALARNI DAVLAT BYUDJETI ORQALI MOLIYALASHTIRISH

Milliy loyihalarni davlat byudjeti orqali moliyalashtirish jarayonlarini o‘rganish, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilish va bu loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.



1-rasm. Milliy loyihalarni moliyalashtirishning maqsad va vazifalari

Bu maqsad va vazifalar milliy loyihalarni moliyalashtirishning samaradorligini oshirish va infratuzilma loyihalarining iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini ta'minlashga qaratilgan.

Milliy loyihalar davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Ular odatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, va ijtimoiy servislarni yaxshilash kabi maqsadlarni ko'zlaydi.


O'zbekiston Respublikasida 2023–2024 yillarda davlat byudjeti orqali milliy loyihalarga ajratilayotgan mablag'lar sezilarli darajada oshdi. Davlat xarajatlarining asosiy yo'nalishlari ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish, energetika, transport va logistika, sog'liqni saqlash, ta'lim va qishloq xo'jaligiga qaratilgan. O'zbekistonning milliy loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirgan sarmoyalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali moliyalashtirilgan loyihalar ham iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

2023 yil uchun davlat byudjeti xarajatlari umumiy miqdori 254 trillion so'mni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan 16% ga o'sdi. Bu o'sish, asosan, infratuzilma loyihalariga qo'shimcha mablag' ajratilishi bilan bog'liq.

Byudjetning 2024 yilga mo'ljallangan qismi esa umumiy davlat xarajatlarining 19% ni infratuzilmaga yo'naltirishni ko'zda tutadi. Bu ajratmalar energetika va transport infratuzilmasini rivojlantirishni maqsad qilgan milliy loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan.

Shu jumladan hozirgi kundagi o'z ish faoliyatini amalga oshirayotgan loyiharni ko'rib chiqishimiz mumkin. 2022 yilda yakunlangan rekonstruktsiya loyihasi natijasida Toshkent va Sirdaryo o'rtasidagi transport harakatlari yaxshilandi. Yo'llarda harakat xavfsizligi oshdi va yuk tashish xarajatlari kamaydi. Bugungi kunda yo'llar yuk va yo'lovchi tashishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston



2-rasm. Milliy infratuzilmalar

Navoi GES 2022 yilda ishga tushirilgan. Bugungi kunda stansiya yiliga 250 million kVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Energiya ishlab chiqarish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda va energiya ta'minotida ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu loyiha doirasida boshqa energiya ishlab chiqaruvchi ob'ektlar bilan hamkorlik davom etmoqda.

2023 yilda yangi liniyalar ishga tushirildi, bu Toshkentning transport tizimida yirik o'zgarishlarga olib keldi. Metropolen tizimi kengayib bormoqda va zamonaviy transport vositalari bilan ta'minlanmoqda. Yangi liniyalar orqali har yili 1,5 milliondan ortiq yo'lovchi tashiladi.

2022 yilda ochilgan ushbu markaz, Samarqand shahrining turizm salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2023 yilda 1 milliondan ortiq turistlarni qabul qilgan, shuningdek, turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratmoqda. Markazda ko'plab xizmatlar va zamonaviy inshootlar mavjud bo'lib, Samarqandning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. O'zbekiston milliy loyihalari mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarini rivojlantirishga, aholi farovonligini oshirishga va barqaror rivojlanishga xizmat qildi.

Ushbu loyihalar orqali transport, energiya, turizm, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash sohalarida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Milliy loyihalar O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga, va umumiy ravishda mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi.

Bundan tashqari, bu loyihalar xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga, shuningdek, O'zbekistonning global iqtisodiy tizimda o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

YIRIK INFRATUZILMA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH TAHLILI

O'zbekistonda yirik infratuzilma loyihalari so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaymoqda. Hukumat iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, sanoat, energetika va transport

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqmoqda. Bu loyihalar ko‘plab sohalarni qamrab oladi, jumladan:



Navoiy va Surxondaryo viloyatlaridagi issiqlik elektr stansiyalari (IES) loyihalari
"O‘zbekiston – Xitoy" gaz quvuri
Yangiyer va Jizzax viloyatlarida quyosh energiyasi stansiyalari

Toshkent – Andijon temir yo‘l loyihasi: Farg‘ona vodiysi bilan boshqa hududlarni bog‘lash.
Toshkent – Samarqand yuqori tezlikdagi poyezd yo‘li: Bu loyiha mintaqalar o‘rtasida tezkor transportni ta‘minlaydi.
Toshkent xalqaro aeroportini kengaytirish va modernizatsiya qilish loyihalari.
Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Xitoyni bog‘lovchi transport yo‘llari: Bu mintaqaviy hamkorlik va savdoni rivojlantirishni ko‘zlaydi.

Toshkent shahrida metroni kengaytirish loyihalarilichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish
Ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish

3-rasm. O‘zbekistondagi yirik infratuzilma loyihalar

O‘zbekistonda yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish turli manbalar orqali amalga oshiriladi:


1. Davlat byudjeti: Ko‘plab infratuzilma loyihalari davlatning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. O‘zbekistonda yirik davlat dasturlari, jumladan, yo‘l, ko‘prik, maktab va shifoxonalar qurilishi bo‘yicha katta mablag‘lar ajratiladi.
2. Xalqaro moliya institutlari:
 - o Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) kabi tashkilotlar infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.
 - o Xitoy bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, ayniqsa, energetika va transport sohalarida faol moliyalashtirilmoqda. Masalan, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi orqali Xitoydan investitsiyalar jalb qilinmoqda.
3. Xorijiy investitsiyalar: Xalqaro investorlar O‘zbekistonning energetika, transport va sanoat infratuzilmasiga katta qiziqish bildiradi. Energetika, ayniqsa, gaz va quyosh energiyasi sohasida xorijiy kompaniyalar o‘z mablag‘larini jalb qilmoqda.
4. Davlat-xususiy sheriklik (DXSH): So‘nggi yillarda O‘zbekiston davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tizimini joriy etmoqda. DXSH orqali xususiy sektor va davlat birgalikda loyihalar amalga oshirishi, xususiy sektor o‘z tajribasi va kapitalini olib kirishi, davlat esa infratuzilma rivoji va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishi mumkin. Masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalari DXSH asosida amalga oshirilmoqda.

5. Obligatsiyalar va kreditlar: Davlat yirik loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliya bozorlarida obligatsiyalar chiqarishi yoki xorijiy banklardan kreditlar olishi mumkin. Shu yo‘l bilan uzoq muddatli infratuzilma loyihalariga katta mablag‘lar jalb qilinadi.

Bu yirik infratuzilma loyihalari mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi uchun turmush sharoitlarini yaxshilash va O‘zbekistonni mintaqaviy savdo va transport markaziga aylantirish yo‘lidagi muhim qadamlar hisoblanadi.

INFRATUZILMA LOYIHALARINING IQTISODIYOTGA TA’SIRINI BAHOLASH: QISQA VA UZOQ MUDDATLI TA’SIRLAR

Infratuzilma loyihalari iqtisodiyotning o‘sishi va rivojlanishi uchun muhim rol o‘ynaydi. Ular qisqa va uzoq muddatli nuqtayi nazardan turli xil iqtisodiy ta’sirlarni keltirib chiqaradi. Ushbu ta’sirlarni tushunish, loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda strategik qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir.



Qisqa muddatli ta’sirlar

Ish o‘rinlari yaratilishi: Yirik infratuzilma loyihalari ish o‘rinlari yaratish orqali aholi bandligini ta’minlaydi. Misol uchun, Angren–Pap temir yo‘li loyihasi davomida 2021 yilda 5,000 dan ortiq ish o‘rni yaratildi. Bu loyiha, aholi bandligini oshirish va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Infratuzilma yaxshilanishi: Transport va energiya infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiy faoliyatni tezlashtiradi. Masalan, Toshkent metropolitenining yangi “Yunusobod” liniyasi 2022 yilda foydalanishga topshirildi, bu yillik 1,5 million yo‘lovchini tashishga imkon beradi. Investitsiya oqimining oshishi: O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 2022 yilda 3,5 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 15% ko‘payishdir. Bu investitsiyalar infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilishi, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi. Aholi farovonligining oshishi: Sog‘liqni saqlash infratuzilmasining modernizatsiyasi natijasida 2023 yilda yangi tibbiy muassasalar 2 milliondan ortiq aholi uchun tibbiy xizmatlar taqdim etdi. Bu aholi uchun sifatli tibbiy xizmatlarga kirishni yaxshiladi.

Uzoq muddatli ta’sirlar

Iqtisodiy o‘sinh: O‘zbekiston iqtisodiyoti yillik o‘sinh sur’ati 2023 yil uchun 5,5% deb belgilangan. Bu iqtisodiy o‘sinh yirik infratuzilma loyihalari samaradorligini ko‘rsatadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Barqaror energiya ta’minoti: Navoi GES ishga tushirilishi natijasida yillik 250 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi. Bu energiya ta’minotini barqarorlashtiradi va iqtisodiy o‘sinh uchun zarur energiya resurslarini taqdim etadi. Ijtimoiy rivojlanish: Yangi infratuzilma orqali, masalan,

2024 yilgacha 100 ga yaqin yangi tibbiyot muassasalarini qurish rejalashtirilgan. Bu aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi va sog‘liqni saqlash sohasida ijtimoiy rivojlanishni ta’minlaydi. Mintaqaviy rivojlanish: 2022 yilda transport yo‘llarining yaxshilanishi natijasida qishloq va shaharlar o‘rtasidagi yuk tashish hajmi 15% ga oshdi. Bu mintaqaviy iqtisodiy o‘rishni ta’minlaydi va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga yordam beradi. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish: 2023 yilga kelib, qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish natijasida 300 ming gektar yer suvni tejaydigan tizimlar orqali sug‘orilgan. Bu hosildorlikni oshiradi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatini yaxshilaydi.

O‘zbekistonning yirik infratuzilma loyihalari qisqa muddatda ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faoliyatni oshirishga xizmat qilsa, uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o‘rishni, ijtimoiy rivojlanishni va mamlakatning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi. Statistik ko‘rsatkichlar ushbu loyihalarining ta’sirini yanada aniqroq ko‘rsatadi.

XULOSA

O‘zbekistonning yirik infratuzilma loyihalari mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu loyihalar, birinchi navbatda, iqtisodiy o‘rish, ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari nafaqat iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning fikrlari O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari va infratuzilma loyihalarini rivojlantirish jarayonidagi muhim yo‘nalishlarni belgilab beradi. Uning tashabbuslari natijasida yirik milliy loyihalar, davlat byudjeti orqali moliyalashtirilgan va xususiy hamkorlikka asoslangan loyihalar, mamlakatning iqtisodiy o‘rishi va xalq farovonligini oshirish uchun samarali vositaga aylangan. “Bizning infratuzilma loyihalarimiz – bu xalqaro hamkorlikning mevalaridir. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi yirik moliyaviy institutlarning yordami va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali loyihalarimizning keng ko‘lamda amalga oshirilishi ta’minlanmoqda.”

Birinchiidan, infratuzilma loyihalari orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Masalan, Angren–Pap temir yo‘li loyihasi doirasida 2021 yilda 5,000 dan ortiq ish o‘rni yaratilgani keltirilishi mumkin. Bu ish o‘rinlari mahalliy aholi uchun bandlik va daromad manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, transport va energiya infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiy faoliyatni tezlashtiradi. 2022 yilda Toshkent metropolitenining yangi “Yunusobod” liniyasi ishga tushirilishi yillik 1,5 million yo‘lovchini tashishga imkon berdi. Bu transport xizmatlarining sifatini oshirish va shahar ichidagi trafikni yengillashtirishga yordam berdi.

Uchinchiidan, 2022 yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 3,5 milliard dollarni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 15% ga oshdi. Ushbu investitsiyalar infratuzilma loyihalariga sarflanib, iqtisodiy o‘rishni tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, yirik infratuzilma loyihalari aholi farovonligini yaxshilaydi. 2023 yilda yangi tibbiy muassasalar ochilishi natijasida 2 milliondan ortiq aholi uchun yuqori sifatli tibbiy xizmatlar taqdim etilgan. Bu sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlardan foydalanishni oshiradi va aholi salomatligini yaxshilaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning yirik infratuzilma loyihalari qisqa muddatda iqtisodiy faoliyatni oshirish va ish o‘rinlarini yaratish orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq muddatda esa, bu loyihalar mamlakatni barqaror iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish va global iqtisodiyotdagi o‘rni mustahkamlashga olib keladi.

Bunday o‘zgarishlar O‘zbekistonni rivojlanayotgan iqtisodiy davlat sifatida shakllanishiga imkon yaratadi. Statistika va amaldagi loyihalar tahlili bu jarayonning samaradorligini ko‘rsatib, mamlakatning kelajagi uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedov, Z. (2022). *O‘zbekiston iqtisodiyotida infratuzilma loyihalarining moliyalashtirish manbalari va ularning samaradorligi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2023). "Yirik infratuzilma loyihalari bo‘yicha ma'lumotlar". O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy veb-sayti. <https://transport.uz>
3. Toshkent Metropoliteni boshqaruvi. (2022). "Yangi liniyalar haqida ma'lumotlar". Toshkent Metropoliteni rasmiy sayti. <https://metropoliten.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2023). "2022 yilgi investitsiya hisobotlari". O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy sayti. <https://invest.gov.uz>
5. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2023). "Tibbiy muassasalar statistikasi, 2023 yil". O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy veb-sayti. <https://sogliqni.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi. (2023). "Iqtisodiy o‘sish statistikasi, 2023 yil". O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi rasmiy sayti. <https://economy.gov.uz>
7. O‘zbekiston Energetika vazirligi. (2022). "Navoi GES haqida ma'lumotlar". O‘zbekiston Energetika vazirligi rasmiy veb-sayti. <https://energo.uz>
8. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2023). "Suv resurslari boshqarish statistikasi, 2023 yil". O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy sayti. <https://qishloqxo'jalik.uz>
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. (2023). "O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichlari". <https://stat.uz>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). "Milliy infratuzilma rivojlanishi strategiyasi". O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz>
11. Тураев, Шавкат. "Совершенствование методики расчета налоговой нагрузки." Научные исследования и инновации в индустрии 4.0. 1.1 (2022): 55-62.
12. Бекмуродов, А., Тураев, Ш., Хасанов, Т., & Бозоров, Р. (2022). Социально-экономическое значение бедности и пути ее снижения: передовой зарубежный опыт и национальная практика. in Library, 22(2), 3-13.
13. Тўраев, Шавкат Шухратович. "СОЛИҚ ЮКИГА ОИД ИЛМИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ." Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” журналы 4 (2021): 324-335.

“Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O‘zbekiston

14. Тўраев, Шавкат Шухратович. "БЮДЖЕТ-СОЛИҚ СИЁСАТИНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 2. 2023.